ABU NASR FAROBIY ILMIY ME’ROSINING MILLIY MA’NAVIYATIMIZGA TASIRI

Jumayev Abdimo‘min Fayziyevich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o`qituvchisi
abdumo`minjumayev71@gmail.com
Sultonov Abdullaziz Jamshid o`g’li
Denov tadbirkorlik va pedagogika institute II kurs talabasi
abdullazizsultonov74@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O`rta Osiyolik mutafakkir qomusiy olim Abu Nasr Farobiyning hayoti, uning ilmiy merosi hamda bu ilmni o`rganishning bugungi kundagi ahamiyati haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: Farobiy, ilm, sharq, g’arb, falsafa, faylasuf, madaniy, xalifalik, yunon, sharh, o`rganish, asarlar, mutafakkir, Ibn Sino, o`rganish, musiqa, tabiat, maqola.

Kirish: Bundan ming yillar oldin diyorimizda dunyo ilm ummoniga ulkan hissa qo`shgan qomusiy olimlar yashab ijod etganlar. Bugungi hayot bilan taqqoslaganimizda ularning ilm olish imkoniyatlari biznikidan ancha qiyinroq va xafliroq edi. Ammo ularni bu to`xtata olmagan. Hayotning har onini ilmga baxshlashdi. Shunday allomalardan biri Abu Nasr Farobiydir. Har birimiz faxrlanishimiz kerak va eng muhimi Farobiyga munosib avlod bo`lishimiz uchun undan qolgan boy merosni o`rganishimiz lozim.

Asosiy qism: Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug‘ Tarxon Forobiydir (873—950) o`z zamonasi ilmlarining barcha sohasini mukammal bilganligi va bu ilmlar rivojiga katta hissa qo`shganligi, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanitganligi tufayli Sharq mamlakatlarida uning nomi ulug‘lanib, “Al-Muallim as-soniy” - “Ikkinchi muallim” (Aristoteldan keyin), “Sharq Arastusi” deb yuritilgan. Forobiy turkiy qabilalardan bo`lgan harbiy xizmatchi oilasida, Sirdaryo

qirg‘og‘idagi Forob - O`tror degan joyda tug‘ilgan. U tug‘ilgan hudud Somoniylar tomonidan boshqarilib, Arab Xalifaligining shimoliy chegarasi hisoblangan.

Forobiy boshlang‘ich ma’lumotni ona yurtida oldi. So`ng Toshkent (Shosh), Buxoro, Samarqandda o`qidi. Keyinroq o`z ma’lumotini oshirish uchun arab xalifaligining madaniy markazi bo`lgan Bag‘dodga keldi. Bag‘dodda bu davrda musulmon dunyosining turli o`lkalaridan, xususan Markaziy Osiyodan kelgan ko`p ilm ahllari to`planishgan edi. U yerga bora turib Forobiy Eron shaharlari - Isfahon, Hamadon, Rayda va boshqa joylarda bo`ldi. Abu Bashar Matta ibn Yunusdan (870-940) yunon tili va falsafasini, Yuhanna ibn Xiylon (860-920)dan tabobat va mantiq ilmini o`rgandi. “Abu Nasr Forobiyning o`zi ham juda ko`p qadimiy tillarni yaxshi egallagan, xotirasi nihoyatda kuchli shaxs bo`lgan.”(2. B 2) Taxminan 941 yildan boshlab Forobiy Damashqda yashagan. Shahar chekkasidagi bog‘da qorovul bo`lib, kamtarona kun kechirib, ilm bilan shug‘ullangan. So`nggi yillar u Halab (Aleppo) hokimi Sayfuddavla Hamdamid (943-967) iltifotiga sazovor bo`ldi. Tadqiqotchilar uning Halabdagi hayotini eng samarali davr hisoblaydilar. Chunki bu hokim hurfikrliligi, ilm-fanga e’tibor berganligi bilan ajralib turgan. U Forobiyni saroyga taklif etadi, lekin Forobiy bunga ko`nmaydi, oddiy hayot kechirishni afzal ko`radi. Forobiy 949-950 yillarda Misrda, so`ng Damashqda yashab, shu yerda vafot etgan va “Bob as-sag‘ir” qabristoniga dafn qilingan deyiladi. Forobiy o`rta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarining qariyb barcha sohalarida 160 dan ortiq asar yaratgan.

U turli bilimlarning nazariy tomonlari, falsafiy mazmuni bilan ko`proq qiziqqanligi uchun uning asarlarini 2 guruhga ajratish mumkin:

1) yunon faylasuflari, tabiatshunoslarining ilmiy merosini izohlash, targ‘ib qilish va o`rganishga bag‘ishlangan asarlar;

2) fanning turli sohalariga oid mavzulardagi asarlar. Forobiy qadimgi yunon mutafakkirlari - Platon, Aristotel, Evklid, Ptolemey, Porfiriylarning asarlariga sharhlar yozgan. (1. B 60)

Ayniqsa, Aristotel asarlari (“Metafizika”, “Etika”, “Ritorika”, “Sofistika” va boshqalar)ni betafsil izohlab, qiyin joylarini tushuntirib bera olgan, kamchiliklarini ko`rsatgan, ayni vaqtda bu asarlarning umumiy mazmunini ochib beruvchi maxsus

asarlar yaratgan. Forobiy sharhlari O`rta va Yaqin Sharq ilg‘or mutafakkirlarining dunyoqarashini shakllantirishda, ularni Aristotel g‘oyalari ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo`ldi. Abu Ali ibn Sino Forobiy sharhlari (“Metafizika” - “Moba’diy tabiat”)ni o`qib, Aristotel asarlarini tushunganligini alohida ta’kidlaydi. Forobiyning sharh yozish faoliyati faqat Sharqnigina emas, o`rta asr Ovro`posini ham yunon ilmi bilan tanishtirishda katta rol o`ynadi. Bu faoliyat uning ilmiy faoliyati taraqqiyotining birinchi bosqichini tashkil etadi. Bu bosqich Forobiyga o`ziga xos maktab xizmatini o`tagan va yangi mavzularda tadqiqotlar olib borish uchun zamin hozirlagan.

Abu Nasr Farobiydan boy ilmiy me’ros qolgan va dunyo bo`ylab tarqalgan. Toshkentda Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida qadimgi Sharq faylasuflari asarlaridan jami 107 risolani, jumladan, Forobiyning 16 risolasini (arabcha) o`z ichiga olgan “Hakimlar risolalari to`plami” (“Majmuat rasoil al- hukamo”, Qo`lyozmalar fondi, 2385-in.) bor. Bu noyob qo`lyozma Forobiy asarlarini o`rganishda muhim aamiyatga ega. To`plamdagi Forobiy risolalari 1975 yili qisman o`zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi. Forobiyning tabiiy-ilmiy fanlar haqidagi qarashlari “Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi” asarida batafsil yoritilgan. Ovro`po olimlaridan B. M. Shtrenshneyder, Karra de Vo, T U. Buur, R. Xammond, R. de Erlanje, F. Deteritsi, G. Farmer, N. Rishar, G. Ley, Sharq olimlaridan Nafisiy, Umar Farrux, Turker, M. Maxdi va boshqalar Forobiy merosini o`rganishga muayyan hissa qo`shdilar.

Forobiyning tabiiy-ilmiy fanlar haqidagi qarashlari «Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi» asarida batafsil yoritilgan. Kitobda o`rta asrda ma’lum bo`lgan 30 dan ortiq fanning ta’rifi, ahamiyati ko`rsatib beriladi. Barcha fanlar 5 guruhga ajratiladi: 1) til haqidagi ilm (7 bo`lim — grammatika, orfografiya, she’riyal); 2) mantiq va uning bo`laklari; 3) matematika (arifmetika, geomelriya, optika, astronomiya, musiqa, og‘irliklar haqidagi ilm, mexanika); 4) tabiatshunoslik va metafizika (8 bo`lim — bashorat qilish, tibbiyot, alkimyo); 5) shahar haqidagi fanlar — siyosiy ilm, fiqh, kalom (etika, pedagogika).(1. B 62)

Farobiy har bir fan yoki fanlar tarmog’ini insonning qaysidir xislati yoki hayot faoliyatiga bog’liqligini, uni rivojlantirishini aytgan. Masalan Forobiy insonning amaliy faoliyati uchun tabiiy fanlarning ahamiyatli deb hisoblasa, matematika, tabiatshunoslik, metafizika fanlari inson aqlini bilimlar bilan boyitish uchun, grammatika, mantiq, she’riyat kabi ilmlar fanlardan to`g‘ri foydalanishni, bilimlami boshqalarga to`g‘ri tushuntirish, ya’ni aqliy tarbiya uchun xizmat qilgan. Siyosat, axloq, ta’lim-tarbiyaga oid bilimlar esa kishilaming jamoalarga birlashuvini, ijtimoiy hayotga tegishli qoidalami o`rgatadi.(1. B 63)

Farobiy qo`lyozmalari dunyoning ko`plab kutubxonalaridan joy olgan. Shuningdek, Farobiy ijodini o`rganuvchi olimlar safi ham shunchalik keng. Farobiy asarlarini nashrdan chiqaruvchi, uning chinakam ensiklopedik merosinining turli jihatlardan o`rganuvchi olimlar farobiyshunoslikka o`z xissasini qo`shib kelishmoqda.

Xulosa: Farobiy, jahon miqyosidagi inson bo`lgan, u o`zining ijodiy yutuqlarida arab, fors, yunon, hind va o`zining shaxsiy turk madaniyatini o`rganib, umumlashtirgan Abu Nasr Farobiydan qolgan ilmiy meros bugungi Sharqning ham G’arbning ham sivilizatsiyasida bor. Fuqarolik jamiyatini qurmoqchi bo`lgan jamiyat albatta “fozil odamlar shahri’ni o`qiydi. Zamon tanlamas ruhda yozilgan bu asarda chin demokratik qarashlar yaqqol o`z ifodasini topgan. Yunon ilmining sharhi Farobiyning eng yirik ishidir meni nazarimda. Keyingi zamon olimlari murakkab yunon falsafiy merosini Farobiy yozgan sharhlar orqali mukammal o`rgangan. Xususan Abu Ali ibn Sino ham antik madaniyat falsafasini Farobiyning sharhi orqali o`rgangan.

Milliy ma’naviyatimizga ta’sir etishi uchun avalo uni bugungi zamonaviylashgan mentalitetimiz olib kirish lozim. Asarlarini nafaqat tarjimasini, balki mukammal sharhini ham ilov aetish kerak deb o`ylayman. Chunki Forobiy asarlarining ta’sirida juda ko`p asarlar dunyoga keldi.

Abu Nasr Farobiy bir so`z bilan aytganda sharq uyg’onish davri madaniyatining yirik olimi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma’naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent-2011.

2. Xayrullayev M. M., O‘rta Osiyoda ilk uygonish davri madaniyati, T., 1994.

3. Qurbonova O` U., Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida ta‘lim-tarbiya masalalari

4. Каршиев, А. А. (2021). О денауских событиях в позднее Средневековье. Бюллетень науки и практики, 7(3), 333-336.